



## 2021- yil yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatida jami **977,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,2 %**ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 526 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **110,9 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **54,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **129,4 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **124,1 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **38,9 %**) o'sishidir.




## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3115</b>	<b>3641</b>	<b>117,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	164	168	102,4
Olmaliq	189	220	116,4
Angren	228	283	124,1
Bekobod	154	178	115,6
Ohangaron	95	116	122,1
Chirchiq	251	298	118,7
Yangiyo'l	80	86	107,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	88	98	111,4
Ohangaron	70	78	111,4
Bekobod	104	107	102,9
Bo'stonliq	113	139	123,0
Bo'ka	84	112	133,3
Quy Chirchiq	79	90	113,9
Zangiota	206	249	120,9
Yuqori Chirchiq	185	206	111,4
Qibray	289	365	193,1
Parkent	101	110	108,9
Piskent	69	80	115,9
O'rta Chirchiq	191	207	108,4
Chinoz	96	115	119,8
Yangiyo'l	148	178	120,3
Toshkent	131	158	120,6



## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.03.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi %da)




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,0 %), Angren (7,8 %) va Chirchiq shaharlarida (8,2 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **118,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **95,6 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 0,8 % punktga kamaygan, **12,1 %**ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **12,0 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **106,9 %**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **9,2 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **105,6 %**) va Yuqorichirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **6,8 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **102,1 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2020- yil yanvar-fevral
- 2021- yil yanvar-fevral

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,0 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **0,3 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,2 %**ni tashkil etgan holda **596,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,9 %**ni tashkil etdi yoki **262,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **101,5 %**ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **27,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan oʻsish surʼati **186,8** %ga teng boʻldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **949,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **464,6** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **2,8** % va **97,2** %ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>977,0</b>	<b>101,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	40,7	101,1	4,2
Olmalik	39,6	100,0	4,1
Angren	40,2	100,2	4,1
Bekobod	39,0	100,4	4,0
Ohangaron	33,5	100,1	3,4
Chirchiq	46,4	100,1	4,7
Yangiyo'l	22,2	100,0	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	28,4	100,6	2,9
Ohangaron	27,4	101,0	2,8
Bekobod	26,5	100,3	2,7
Bo'stonliq	50,6	100,8	5,2
Bo'ka	26,5	100,5	2,7
Quyichirchiq	23,7	100,4	2,4
Zangiota	117,5	106,9	12,0
Yuqori Chirchiq	66,6	102,1	6,8
Qibray	89,8	105,6	9,2
Parkent	56,0	100,2	5,7
Piskent	29,2	100,1	3,0
O'rta Chirchiq	45,4	101,0	4,6
Chinoz	27,8	100,2	2,8
Yangiyo'l	35,8	100,1	3,7
Toshkent	64,2	100,7	6,6





## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-fevral oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

**1**  
Zangiota  
117,5

**2**

Qibray  
89,8

**3**  
Yuqori Chirchiq  
66,6



### Kichik hajm

(mlrd. so'm)

**1**  
Yangiyo'l sh  
22,2

**2**

Bekobod t  
26,5

**3**  
Quyichirchiq  
23,7



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70